

# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

## GLOBALLASHUV JARAYONING MA'NAVIYAT RIVOJIGA TA'SIRI VA UNING OQIBATLARI

Nigmanova Umida Baxromovna

Toshkent davlat pedagogika universiteti  
pedagogika fanlari doktori (PhD) dotsenti

### Annotatsiya

Mazkur maqolada globallashuv jarayonining ma'naviyat rivojiga ta'siri va uning oqibatlari to'g'risidagi masalalar ko'rib chiqildi. Sh.Mirziyoevning qator nutqlarida, Qarorlarida, Farmonlarida yoshlarda milliy-ma'naviy qadriyatlarga hurmat ruhini tarbiyalash, globallashuv jarayonining salbiy oqibatlariga qarshi mafkuraviy immunitetga ega bo'lish borasidagi ustuvor vazifalar yechimiga keng e'tibor qaratilgan. Globallashuv jarayoni milliy ma'naviyatga ta'siri tahlil qilingan va xulosalar, takliflar ilgari surilgan.

**Tayanch so'z va tushunchalar:** globallashuv, ommaviy axborot vositalari, shaxs, ta'lim, ma'rifat, tarbiya, ma'naviyat, mafkuraviy bo'shliq.

**Аннотация.** В данной статье рассмотрено влияние процесса глобализации на развитие духовности и его последствия. Многие выступления, Постановления, Указы Ш.Мирзиёева были направлены на решение первоочередных задач воспитания духа уважения к национально-духовным ценностям среди молодежи, обретения идеологического иммунитета против негативных последствий процесса глобализации. Анализируется влияние процесса глобализации на национальную духовность, выдвигаются выводы и предложения.

**Ключевые слова и понятия:** глобализация, средства массовой информации, личность, образование, просвещение, воспитание, духовность, идеологический разрыв.

**Annotation.** This article examines the impact of the globalization process on the development of spirituality and its consequences. Many speeches, Resolutions, Decrees of Sh. Mirziyoyev were aimed at solving the primary tasks of cultivating the spirit of respect for national and spiritual values among young people, gaining



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

ideological immunity against the negative consequences of the globalization process. The influence of the globalization process on national spirituality is analyzed, conclusions and proposals are put forward.

**Key words and concepts:** globalization, mass media, personality, education, education, upbringing, spirituality, ideological gap.

XX asr oxiri - XXI asr boshlariga kelib globallasuv jarayonlari yanada avj oldi, zamonaviy axborot texnologiyalarining bemisl rivoji va yagona jahon axborot maydonining shakllanishi bu jarayonning yangi bosqichga ko'tarilishiga "Sivilizatsiyalararo muloqotning yangicha sifat kasb etishi"ga olib keldi.

Jamiyat hayotining turli sohalarida keskin namoyon bo'lishi siyosatga doir ilmiy adabiyotlarida "Globallasuv fenomeni" deb nomlanmoqda. SH.Mirziyoyev ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha videoselektorida "Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi-bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi-ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat"[1] deb bejizga aytmaganlar. Albatta, bugungi globallasuv jarayonida ma'naviyat ham chetda qolgani yo'q. Bashariyat taraqqiyotidagi bunday o'zgarishlarni uzil-kesil "yaxshi" yoki "yomon" deb, salbiy yoki ijobiy hodisa sifatida baholab bo'lmaydi. Uzoq tarix tajribasi shunday guvohlik beradiki har qanday taraqqiyot mahsulidan ikki xil maqsadda – ezgulik va yovuzlik yo'lida foydalanish mumkin. Ma'naviyat borasida gap ketganida ba'zan globallasuvning faqatgina eng asosiy jihatlari va yo'nalishlarini ham qamrab olish qiyin. Ma'naviyatni ham bir uyga to'plangan boylikka qiyoslasak, tashqaridan kirayotgan shamol uy ichidagi narsalarni ostin-ustun qilib tashlashini hech bir xonadon sohibi istamaydi. Huddi shu kabi biz ham yot g'oyalar, oqimlar va mafkuralar ma'naviyatimizga salbiy ta'sir o'tkazishiga qarshi himoya choralari ko'rishimiz tabiiy. Chetdan o'tkaziladigan mafkuraviy ta'sirga qarshi himoya choralari ko'rishdan avval qanday ta'sirlarni ma'qullash lozimu, qandaylarini rad etish kerakligini aniqlab olish lozim. Hozirgi kunda birorta ham milliy ma'naviyat yo'qki, u boshqa xalqlar ma'naviyatidan to'la holi bo'lsa. Hatto, Avstraliya chakalakzorlari, Afrika savannalari va Janubiy Amerika changalzorlarida turmush kechirayotgan qabilalar ham qo'shni qabilalar va zamonaviy tamaddun ta'sirini



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

o'zida his qilib turadi. Qolaversa tarixni tahlil qilish boshqa xalqlar ma'naviyatidan bahramand bo'lgan xalqlar ma'naviyati yuksakliklarga ko'tarilganidan guvohlik beradi.

Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati va ma'naviyati ham Sharq va G'arbni tutashtirgan karvon yo'llarida joylashgani sababli ham Sharq, ham G'arb madaniyatidan bahramand bo'lgan. Muhimi shundaki, xalqimiz G'arb va Sharq ma'naviyatidan bahramand bo'lib ularning ijobiy tomonlarini o'zlashtiribgina qolmay, ularga ijodiy yondashib yangi cho'qqilarga ko'tarishdi. Bu fikrning tasdig'ini ma'naviyatning tarkibiy qismlari bo'lgan ilmiy bilimlar, diniy e'tiqod, san'at misolida ham ko'rish mumkin. Faqat Vatanimiz emas, umumjahon madaniyati tarixidan mustahkam o'rin egallagan allomalarimiz ijodi ham shu fikrni tasdiqlaydi. Ana shunday ajdodlarimizdan biri Abu Rayhon Beruniy Xitoy va Hindiston, Yunoniston va Rim falsafasining durdonalarini, tabiiy fanlardagi yutuqlarini chuqur o'zlashtirgan edi. Hindistonda bo'lgan paytida u hind fani va madaniyatini o'rganar ekan, qadimgi manbalarni o'rganish uchun qadimgi hind tili-sankritni bilish lozimligini angelaydi. U sanskritni o'rganishga kirishadi va qisqa fursatda uni chuqur o'zlashtiradi. Endi qadimgi hind madaniyati va fanini asl manbalardan o'rgana boshlaydi. U shuningdek, yunon - Rim madaniyati va fanini o'rganish uchun yunon, lotin hamda qadimgi yahudiy tillarini chuqur o'rgangan edi. Jahon falsafasi, madaniyati tarixida chuqur iz qoldirgan Abu Nasr Forobiy ham o'nlab tillarni bilgan va o'nlab xalqlar madaniyati va ma'naviyatini chuqur o'rgangan. Bunday misollarni juda ko'plab keltirish mumkin. Eng muhim jihati shundaki, o'sha buyuk ajdodlarimiz jahon xalqlari ma'naviyatini o'rganibgina qolmay, ularni chuqur tahlil qilishdi, tegishli jihatlarini o'zlashtirib, rivojlantirib olamshumul kashfiyotlarni ochishdi. Qayd etib o'tilgan qator ajdodlarimizning ilmiy faoliyatlari tahlili shundan dalolat beradiki, ular jahon xalqlari madaniyatiga, ilmiy merosiga, ma'naviyatiga hurmat bilan qarash, kerakli joylarini o'rganib, ijodiy rivojlantirish orqaligina ma'naviyat cho'qqisiga erishish mumkin.

Yoshlar ma'naviy olamiga ta'sir o'tkazayotgan yoki ta'sir o'tkazmoqchi bo'layotgan g'oyalarning qay birini qabul qilish va qay birini rad etish lozimligini aniqlash uchun jiddiy tahlil lozim. Shunday g'oyalar borki, ularni xalq ochiq chehra bilan qabul qiladi. Shunday g'oyalar ham borki, ularni millat ongidan qanday joy olgani sirli bo'lib qoladi. Ezgu g'oyalar milliy ma'naviyatni boyitishga, rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu umuminsoniy ezgu-g'oyalardir. Chunki, milliy ma'naviyatlar o'zaro ta'sir jarayonida rivojlanadi. Har qanday xalq ma'naviyati



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

rivojiga nazar tashlansa uning boshqa xalqlar udum va an'analarini qanchalik o'zlashtirib va rivojlantirib borganini ko'rish mumkin.

Milliy kiyimlar ham milliy qadriyatlardan biri hisoblanadi. XX asr davomida ana shu qadriyatimizning ham tadrijini kuzatsak, g'aroyib hodisalarning guvohi bo'lamiz. O'tgan asr boshlarida mahalliy erkaklarning qishki kiyimi telpak yoki etikdan iborat edi. Yozgi kiyim esa do'ppi, ko'ylak yoki yaktak, oq lozim va shippak yoki kavishdan iborat edi. Kiyinish madaniyati milliylik asragan holda yuksaldi. Lekin "Ommaviy madaniyat" ta'siri ostida kirib kelayotgan mentalitetimizga zid bo'lgan yengil, ochiq kiyimlarni qabul qilib bo'lmaydi.

Tariximiz ilm-fan, din, san'at sohasida yurtimizda yetishib chiqqan allomalar butun dunyoga dong taratganidan, demakki butun dunyo ma'naviyatiga katta ta'sir o'tkazganidan guvohlik beradi. Abu Nasr Forobiy jahon falsafasi rivojiga sezilarli hissa qo'shgan bo'lsa, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Az-Zamaxshariy, al-Xorazmiy, Mirzo Ulug'bek singari allomalarimiz jahon fanini yangi pog'onalariga ko'tarishdi. Ismoil Buxoriy, at Termiziy, Moturidiy, Abduxoliq G'ijduvoniy, Bahovuddin Naqshbandiy, Ahmad Yassaviylar esa, Hadis, kalom, fikh ilmlari va tasavvufda porloq yulduzlar hisoblanishadi. Buyuk ajdodlarimizning islom madaniyati takomiliga qo'shgan hissasi xususida fikr bildirar ekan Sh.Mirziyoyev shunday degan edi: "Ma'lumki, bizning mintaqamiz, avvalambor, bugungi O'zbekiston zamini islom ilm-fani va madaniyatining qadimiy beshiklaridan biri hisoblanadi.

Xalqimizning ana shunday boy tarixiy, ilmiy, ma'naviy merosini har tomonlama o'rganish, jahon afkor ommasiga keng tanishtirish, eng muhimi, islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini chuqur ochib berish maqsadida biz azim poytaxtimiz Toshkent shahrida O'zbekistondagi Islom madaniyati markazini barpo etishga qaror qildik"[2:468].

Globalashuvning shu tarzda jadal suratlar bilan yuz berayotgan bunday sharoitda biz yoshlarimiz ongida dunyoning siyosiy-mafkuraviy manzarasini, unda kechayotgan g'oyaviy kurashlardan ko'zlangan tub maqsad-manfaatlarning asl qiyofasini ochib berish, yoshlarga mustaqillikni mustahkamlash, jamiyat hayotining turli sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarning tub mohiyatini yoritib bergan holda ulardagi Vatanga sadoqat tuyg'ularini yanada mustahkamlash, yoshlarda tarixiy xotira, madaniy merosga hurmat, milliy o'zlikni anglash tuyg'ularini mustahkamlagan holda ularda o'z kuch va imkoniyatlariga tayanib yashash hissini shakllantirish, yoshlarda ma'naviy-mafkuraviy tahdidlarga, "ommaviy madaniyat"



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

niqobi ostidagi turli xil hatti-harakatlarga nisbatan doimo ogoh, sezgir va xushyor bo‘lish ko‘nikmalarini shakllantirish kabi muhim vazifalarga asosiy e‘tiborimizni qaratishimiz lozim.

Bu boradagi muammolar ta‘lim-tarbiya tizimi oldiga bir qator vazifalarni qo‘ymoqda:

1. Ta‘lim –tarbiya davomida yoshlarga hozirgi davrning globallasuv jarayonini va undan ko‘zlangan asl maqsadlarni doimiy ravishda tushuntirish borish.
2. Globallasuv jarayonlarining ijobiy va ayni damda salbiy oqibatlarini anglab yetishlariga erishish.
3. Yoshlarga ma‘naviy tarbiya, mafkuraviy bo‘shliq, ma‘naviy tahdid tushunchalarining mazmun-mohiyatini keng yoritib borish.

Butun dunyo xalqlari bir-birini tushunib yashashga intilmog‘i lozim. Dushmanlik, g‘ayr ko‘zi bilan qarash emas, mehr bashariyatni birlashtiradi. Bu ulug‘ haqiqatni bizning ajdodlarimiz allaqachon anglab yetganlar. Ammo o‘zgani tushunish uchun, o‘zgaga mehr ko‘zi bilan boqish uchun, avvalo, inson o‘zligini anglab yetmog‘i kerak. O‘zligini anglamagan zot hech qachon o‘zgani tushunmaydi, uni xolis qabul qilmaydi.

Xulosa sifatida bildirgan ba‘zi fikrlarni takrorlash o‘rinli bo‘lardi. Ta‘bir joiz bo‘lsa, aytish mumkinki, bugungi zamonda mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham ko‘proq kuchga ega. Bu masalaning kishini doimo ogoh bo‘lishga undovchi tomoni shundaki, agar harbiy, iqtisodiy, siyosiy tazyiq bo‘lsa, buni sezish, ko‘rish, oldini olish mumkin, ammo mafkuraviy tazyiqni, uning ta‘siri va oqibatlarini tezda ilg‘ab yetish nihoyatda qiyin.

Ta‘kidlash joizki, globallasuv jarayonining o‘ziga xos jihati shundan iboratki, hozirgi sharoitda u mafkuraviy ta‘sir o‘tkazishning nihoyatda o‘tkir quroliga aylanib, har xil siyosiy kuchlar va markazlarning manfaatlariga xizmat qilayotganini sog‘lom fikrlaydigan har qanday odam, albatta kuzatishi muqarrar. Shuningdek, milliy urf-odatlarimiz, marosimlarimizga baho bermoqchi bo‘lsak, butun insoniyat manfaatlarini nuqtai-nazarini, alohida shaxs erkinligi, Vatan va millat manfaatlarini, milliy qadriyatlarimiz majmuini yaxlit uyg‘unlikda olib qaramog‘imiz talab etiladi. Agar shu uyg‘unlikka mohiyatan muvofiq bo‘lsa, yoxud loaqal unga zid bo‘lmasa, demak, maqbul, ammo insonlararo ziddiyat tug‘dirsa, nifoq solsa yoki o‘zga shaxs erkini bo‘g‘sa, Vatan va millat manfaatlariga zid bo‘lsa, demak, maqbul emas. Ammo milliy ma‘naviyatimizni qadrlashimiz, uni rivojlantirishga urinishimiz, kimlardir talqin qilmoqchi bo‘layotganidek, o‘zga xalqlar madaniyatini



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

mensimaslik yoki milliy xudbinlikka berilishni anglatmaydi, balki uzoq yillik qaramlik asoratidan qutulib o'zligimizga qaytish, o'zligimizni anglab yetishga urinishni bildiradi. Chunki har qaysi millat yoki xalqning ma'naviyati uning bugungi hayoti va taqdirini o'sib kelayotgan farzandlarining kelajagini belgilashda shak-shubhasiz hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021 yil 19 yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishi.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. –Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017.
3. Bahromovna, N. U. (2022). Peculiarities of the spiritual image of the Uzbek people and the role of historical roots in the development of national self-awareness. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 12(5), 1206-1210.
4. Bahromovna, N. U. (2022). Problems of national identity in globalization. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 11(11), 37-41.
5. Bahromovna, N. U. (2022, November). BO 'LAJAK O 'QITUVCHILARDA MILLIY O 'ZLIKNI ANGLASH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR. In *E Conference Zone* (pp. 34-38).
6. Mamarasulovich, A. B. (2023, January). YOSH AVLODNI MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBIYALASH–XALQIMIZ TARBIYAVIY AN'ANALARINING O 'ZIGA XOS JIHATLARI SIFATIDA. In *Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies* (Vol. 2, No. 1, pp. 273-281).
7. Azamatovich, J. N. (2022, May). CREATIVITY AS AN IMPORTANT PEDAGOGICAL FACTOR FOR STUDENTS OF MILITARY EDUCATION. In *Conference Zone* (pp. 280-282).
8. Жалилов, Ў. Н. (2022, June). HARBIY TA'LIM FAKULTETLARI TALABALARINING KASBIYKREATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY–PEDAGOGIK ZARURIYATI. In *Conference Zone* (pp. 58-60).



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

9. Jalilov, N. A., & Fazilov, U. (2022). PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF DEVELOPING CREATIVE QUALITIES OF STUDENTS OF MILITARY EDUCATION FACULTIES. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 7, 37-40.
10. Azamatovich, J. N. (2021). DEVELOP THE QUALITIES OF PROFESSIONAL CREATIVITY. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(12), 1080-1083.
11. Jalilov, N. A. (2022). HARBIY TALIM FAKULTETLARI TALABALARINING KREATIV SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH. Science and innovation, 1(Special Issue 2), 469-475.
12. Mirbaxramovna, R. A. (2022). PEDAGOGICAL CONDITIONS OF EDUCATION OF STUDENTS ON THE BASIS OF THE IDEA OF LOYALTY TO NATIONAL AND UNIVERSAL VALUES. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 4(02), 40-43.
13. Mirbaxramovna, R. A. (2022). PEDAGOGICAL CONDITIONS OF EDUCATION OF STUDENTS ON THE BASIS OF THE IDEA OF LOYALTY TO NATIONAL AND UNIVERSAL VALUES. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 4(02), 40-43.
14. Aziza, R. (2022). The role of islamic values in determining freedom of religious belief in independent Uzbekistan. Asian Journal of Multidimensional Research, 11(11), 81-87.
15. Jumaniyozov, X. S., Nigmanova, U. B., Rasulova, A. M., & Abdug‘aniyev, O. T. (2022). THE ESSENCE OF THE PHENOMENA OF EXTREMISM AND TERRORISM IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION AND ITS THREAT TO THE STABILITY OF THE INTERNATIONAL COMMUNITY. Ann. For. Res, 65(1), 9173-9179.
16. Safoyevich, J. X., & Farrukh, N. (2021). The Relationship Between the West and the Islamic World in International Geopolitical Processes. Middle European Scientific Bulletin, 17, 280-283.
17. Sapayevich, J. X. (2022). OPPORTUNITIES OF CENTRAL ASIAN STATES IN THE SYSTEM OF INTERNATIONAL GEOPOLITICAL RELATIONS. World Bulletin of Social Sciences, 9, 129-131.
18. Жуманиязов, Х. С., & Нигманова, У. Б. (2019). Трудовой подвиг народов Узбекистана в годы Второй мировой войны. Эшелоны идут на восток. Эвакуация в Узбекистан в годы Великой Отечественной войны, 145.



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

19. Собирова, М. А. (2013). Значение духовных ценностей в развитии национальной духовности. Актуальные проблемы современной науки, (5), 83-86.
20. Собирова, М. А. (2019). Формирование патриотической позиции молодежи на примерах героизма народов Узбекистана в годы Второй мировой войны. Эшелоны идут на восток. Эвакуация в Узбекистан в годы Великой Отечественной войны, 232.
21. Собирова, М. А., Саматов, Х., & Никитченко, Г. В. (2015). ВОСПИТАНИЕ ПОЛИТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЕЖИ СОВРЕМЕННОГО УЗБЕКИСТАНА. Педагогические науки, (4), 46-48.
22. Собирова М.А, Муминов Ш. (2015) АКСИОЛОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД В ПРОЦЕССЕ ПОДГОТОВКИ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ. Актуальные проблемы современной науки,(6), 134-137.
23. Sobirova, M. A. (2022). THE SUCCESS OF THE INFORMATION AGE AND PROBLEMS. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 11, 111-115.
24. Собирова, М. А. (2023, January). РАЗВИТИЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ ДУХОВНОСТИ ПОСРЕДСТВОМ НАЦИОНАЛЬНЫХ ОБЫЧАЕВ, ТРАДИЦИЙ И ЦЕННОСТЕЙ. In Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies (Vol. 2, No. 1, pp. 172-179).
25. Dilorom, K. (2022). The fate and activity of the jadids in the soviet period. Asian Journal of Multidimensional Research, 11(10), 207-213.
26. Negmatov, B. M., & Hodjaeva, D. Y. (2021). Amir temur and the development of national-military games. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(10), 1878-1881.
27. Хужамов, М., & Абсаттарова, М. (2019). Воспоминания о доблестных подвигах героев ТГПИ имени Низами во Второй мировой войне. Эшелоны идут на восток. Эвакуация в Узбекистан в годы Великой Отечественной войны, 207.
28. Absattarov, B. M. (2019). EVOLUTION OF VIEWS ON ETHICS, ETHICAL CRITERIA AND ETHICAL STANDARDS. In НОВАЯ НАУКА: СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ (pp. 135-141).





## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

29. Mamarasulovich, A. B. (2022). RELIGIOUS AND PHILOSOPHICAL FOUNDATIONS OF HUMAN MORAL DEVELOPMENT. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 11, 154-163.
30. Mamarasulovich, A. B. (2022). RELIGIOUS AND PHILOSOPHICAL ASPECTS OF HUMAN MORAL DEVELOPMENT. *Conferencea*, 197-201.
31. Хужамов, М., & Абсаттарова, М. (2019). Воспоминания о доблестных подвигах героев ТГПИ имени Низами во Второй мировой войне. Эшелоны идут на восток. Эвакуация в Узбекистан в годы Великой Отечественной войны, 207.
32. Абсатторов, Б. М. (2022). ТАСАВВУФ–ЎЗ–ЎЗИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ВА ҲАҚИҚАТНИ БИЛИШ ЙЎЛИ СИФАТИДА. *Gospodarka i Innowacje.*, 30, 167-173.
33. Nizomi, A. B. M., & Al-Khorazmi, K. A. O. (2022). Sufism as a way of self-implementation and knowledge of the truth. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 11(11), 199-204.
34. Mukhammadievich, K. J., Mamarasulovich, A. B., & Olimjanovich, X. A. (2022, December). THE POSITION OF AL-FARABI AND IBN SINA IN THE CONTROVERSY OF THE HISTORY OF PHILOSOPHY AND SUFISM. In *E Conference Zone* (pp. 17-25).
35. Mamarasulovich, A. B. (2023, January). YOSH AVLODNI MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBIYALASH–XALQIMIZ TARBIYAVIY AN‘ANALARINING O‘ZIGA XOS JIHATLARI SIFATIDA. In *Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies* (Vol. 2, No. 1, pp. 273-281).
36. Samiyevich, T. B. (2022). Education of youth in the Hadiths of Imam al-Bukhary. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 11(11), 98-101.
37. Samiyevich, T. B. (2022). The role of the scientific heritage of ancestors in improving the intellectual competence of young people. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 11(11), 102-105.
38. Samiyevich, T. B. (2021). THE SIGNIFICANCE OF MIRZO ULUGBEK'S HISTORY OF FOUR ULUSES IN YOUTH EDUCATION. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(11), 269-274.
39. Samiyevich, T. B. (2021). The Role Of The Concept Of Innovative Development In The Education Of The Third Renaissance. *Texas Journal of Philology, Culture and History*, 1, 58-62.



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

40. Otaboyevich, K. M. (2022). Study of the problem of developing students' ideological-ideological competence in philosophical-pedagogical literature. Asian Journal of Multidimensional Research, 11(11), 88-93.
41. Otaboyevich, K. M. (2020, December). DEVELOPMENT OF IDEOLOGICAL POTENTIAL OF STUDENTS OF PEDAGOGICAL HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTION ON THE BASIS OF NATIONAL AND SPIRITUAL VALUES. In Archive of Conferences (Vol. 10, No. 1, pp. 9-11).
42. MAMARASULOVICH, A. B. (2018). INNOVATORY METHODS OF WORKING WITH UNORGANIZED YOUTH. European Science Riview.
43. MAMARASULOVICH, A. B. (2021). Баркамол ёшларни тарбиялашда маънавий-ахлоқий мезон ва меъёрларнинг ўрни. АНДИЖОН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ ИЛМИЙ ХАБАРНОМА.



# E- Conference Series

Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings



E-CONFERENCE  
SERIES